

## XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHDA EKSTARLINGVISTIK OMILLARNING O‘RNI



**Mahfuza Farhodovna XOMIDOVA**

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası kabinet mudiri  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
[mahfuzaxon.xomidova@mail.ru](mailto:mahfuzaxon.xomidova@mail.ru)

### Annotatsiya

Mazkur ma’ruzada xorijiy tillarni o‘rganish zarurati, ularning o‘rgatishda ekstralingvistik omillarning ahamiyati haqida atroflicha fikr yuritilgan. Milliy realiyalar, muloqot jarayoni, neologizmlarning til o‘rganishdagi o‘rni misollar asosida tahlil qilingan.

### Abstract

This report looks into the necessity of learning foreign languages and extralinguistic factors in the process of teaching. The role of national reality, the process of communication, neologisms in acquiring languages was widely analysed with examples.

### Аннотация

В докладе автор размышляет о необходимости изучения иностранных языков, и детально описывает роль экстралингвистических факторов в их преподавании. С помощью примеров анализируется роль культурных реалий и неологизмов в процессе общения.

**Kalit so‘zlar:** ekstarlingvistik omil, kommunikativ muvaffaqiyatsizlik, realiya, neologizm, muloqot jarayoni.

**Keywords:** extra linguistic factor, realia, communicative failure, neologism, process of communication

**Ключевые слова:** экстралингвистические факторы, коммуникативный коллапс, реалия, неологизм, процесс общения.

Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli hamda intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash muhim omil bo‘lmoqda. Bu esa bevosita xorijiy tillarni ham puxta egallashni nazarda tutadi.

Chet tilida gapirishga o‘rgatish – bu chet tili mashg‘ulotlarining asosiy va bosh maqsadi sanalanadi. Chet tillarning o‘qitilishini yanada takomillashtirish maqsadida birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning 10-dekabr 2012-yildagi PQ-1875-sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning (1) qabul qilinganligi ham yurtimizda chet tillariga bo‘lgan e’tiborni yanada ortganligining isbotidir.

Chet tilida nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, tajribasini boyitadi. Kommunikantlarning bir-birini tushunishlari chet tilini bilishning asosiy mezonini hisoblanadi.

Chet tili va madaniyat yaxlit holda o'rgatiladi. Madaniyat, bu o'rinda inson fikri va faoliyati hosilasi tushunchasini ifodalaydi. Chet tilida o'rganiladigan lisoniy birlikda lingvomadaniy xususiyatlar tajassum topgan va nutqiy jarayon (diskurs)da ularga o'quvchi e'tibori qaratiladi. Mazkur metodik qoida doirasida chet til o'qitish maqsadi va mazmuni belgilanadi.

Har qanday til o'rganuvchi shaxs o'z tilining tashuvchisi bo'lish bilan birga, o'rganayotgan tilning urf-odati, madaniyatidan ham o'z vaqtida boxabar bo'lishi kerak. Til o'rganishda grammatik, leksik, sintaktik kabi lingvistik omillar bilan bir qatorda ekstralingvistik omil ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qaysi til o'z madaniyati, tarixi, maishiy hayotidan bevosita xabar beradigan asosiy vositadir. Boshqa bir tilni o'rganuvchi kishi lingvistik bilimlar bilan bir qatorda quyidagi ekstralingvistik omillardan ham boxabar bo'lishi kerak:

1. **Milliy realiyalar**
2. **Muloqot madaniyati**
3. **Mental neologizmlar**

Milliy realiyalar – ma'lum bir xalqqagina tushunarli bo'lgan narsa-predmetlar, urf-odatlar va bayram nomlari hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilini o'rganayotgan chet elliklar uchun *do'ppi, tandir, so'ri* kabi nomlar milliy realiya sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, koreys milliy mentalitetiga xos bo'lgan *hanbok, kimchi* kabi so'zlar esa o'zbek tili vakili uchun koreys milliy realiyasini hosil qiladi. Milliy realiyalar haqidagi tasavvurlarning kamligi yoki umuman yo'qligi muloqot jarayonida kamchilik sifatida baholanadi. Chunki kommunikatsiya jarayonida kishi o'zidagi olam lisoniy manzarasidan foydalangan holda muloqotga kirishadi. Agar uning lisoniy zaxirasida o'rganayotgan tilning milliy realiyalari mavjud bo'lmasa, muloqot jarayoni omadli chiqmaydi. Shu sababdan ham o'rganilayotgan xorijiy tilning milliy-madaniy tushunchalarini ifodalaydigan leksikasidan ham imkon qadar tanishib borish talab etiladi.

Muloqot jarayoni va undagi noverbal vositalar ham til o'rganuvchilar uchun muhim hisoblanadi. Bu ham ekstralingvistik faktorlarning ichida eng muhimidir. Chunki bu omil bevosita muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Muloqot jarayoni esa so'zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham muhim hisoblanadi. Agar ikki til vakili muloqot paytida bir-birini so'zlar yordamida tushunsa-yu, lekin noverbal vositalar yoxud o'ziga xos muloqot shakllari orqali tushunmasa, bu o'rinda kommunikativ muvaffaqiyatsizlik yuz beradi. Masalan, o'zbek tili vakili uchun suhbatdoshiga hurmat ko'rsatish, salomlashish kabi omillar muhim hisoblanadi. O'zbek tili vakili uchun qo'l silkib suhbatdoshini chaqirish odatiy holat hisoblanadi. Ammo bu holat boshqa millat vakili, xususan koreyslar uchun bu ishora biror hayvonni chorlash ma'nosini beradi. Agar koreys tilidagi ekstralingvistik omildan bexabar shaxs koreyalik insonga nisbatan shu noverbal

vositani qo'llasa, bu o'rinda kommunikativ muvaffaqiyatsizlik yuz beradi. Shu sababli ham bunday ishoralarni qo'llayotgan til vakili suhbatdoshining milliy mansubligiga e'tibor qaratish kerak. Shuningdek, muloqotning boshlanishi sifatida o'zbek tilida salomlashishdan keyin hol-ahvolni, yaqinlarini so'rash odatiy me'yor hisoblansa, inglizlar salomdan keyin suhbatdoshiga ob-havo haqida, ruslar ish, sog'liq haqida savollar bilan murojaat qiladi. Til o'rganish chog'ida ekstralingvistik omillarni ham e'tiborga olish shu jihatdan muhim sanaladi.

Chet tilini o'rganishda muhim sanalgan omillardan yana biri shu tilda paydo bo'lgan milliy neologizmlarning mohiyatini ham to'la tushunishdan iboratdir. To'g'ri, neologizm bevosita tilning lug'at tarkibida o'rganiladi. Ammo biror bir tilni o'rgatish jarayonida faqat grammatik qoidalar, adabiy tilda mavjud so'zlarni singdirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Neologizmlar bu jarayondan chetda qoladi. Neologizmlar bevosita tilning iste'moldagi faol, so'zlashuv qatlamiga mansub bo'lib, til o'rganayotgan kishi o'zga til vakili bilan muloqotga kirishganida uning nutqidagi neologizmlarni tushunib yetmasligi, natijada kognitiv dissonans yuz berishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarda hozirgi kunda onlayn muloqotga beadab, yoqimsiz sharhlari bilan xalal beruvchi, muloqot ishtirokchilarini haqorat qiladigan kishiga nisbatan **“troll”** leksemasi(2), mashhur juftliklarni tasvirlashda esa **“brangelina”** neologizmlari faol qo'llaniladi. Har ikki so'z ham ingliz tili uchun neologizm hisoblanadi. Ular anglatayotgan ma'no esa bevosita ekstarlingvistik omil bilan bog'liq. Xususan, **“troll”** qadim G'arb mifologiyasida odamxo'r, yovuz maxluq sifatida uchraydi va uning qiladigan ishlari faqat yovuzlik hisoblanadi. **“Troll”** so'zining shu ma'nosi bugun internet olamida boshqa bir tushunchani ifodalayapti. **“Brangelina”** so'zi esa bevosita mashhur kino yulduzlari Anjelina Joli va Bred Pitt turmush qurgandan so'ng paydo bo'lgan neologizm sanaladi. Bu kabi neologizmlar bugun har qaysi tilda topiladi. Shu sababdan ham til o'rganish jarayonida ularni to'g'ri qo'llash va tushunishga o'rgatish tinglovchi va so'zlovchi orasidagi kommunikativ to'siqni olib tashlaydi.

Ingliz tilida yana shunday so'zlar borki, ular ma'lum bir yozuvchi asari qahramoni yoki uning butun ijodi xususiyatlarini jamlagan holda yaratilgan. Masalan, ingliz tilida mashhur chex yozuvchisi Frans Kafkaning modernizm ruhida yozilgan asarlaridagi tushunarsiz manzaralar, xarakterli obrazlardan keyin **“kafkaesque”** (kafkaona, Kafkaga oid)degan so'z paydo bo'lgan. Bu so'z bugun xarakteri og'ir va tushunarsiz kishilarga nisbatan qo'llaniladi hamda bevosita Kafkaning qahramonlari xususiyatlariga ishora qiladi. Migel de Servantesning mashhur **“Don Kixot”** asaridan keyin esa ingliz tilida **“quixotic”** (3) leksemasi paydo bo'lgan. Bu so'z haddan tashqari ideal, real hayotda mavjud bo'lmagan sof, soddadil odamlarga nisbatan ishlatilib, rus tilida **«донкихотский»**, o'zbek tilida esa **“donkixotona”**, ya'ni **“soddadilona”** deya tarjima qilinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'rganilayotgan tildagi lingvistik bilimlar bilan bir qatorda uning madaniyati, urf-odati, adabiyotidan xabar beruvchi realiyalar, muloqot shakllari va milliy neologizmlarni ham parallel tarzda o'rganish kishining til egasi bilan muloqoti yengillashuviga, shuningdek, dunyoqarashining kengayishiga ham ta'sir qiladi. Lingvistik kompetensiyalarini o'sha mamlakatlarning madaniyati va til xazinasini, ya'ni sotsiolingvistik kompetensiyani



boyitish, so‘zlashuv uslublarini yaxshi o‘rganish hamda tili o‘rganilayotgan millat vakillari bilan ko‘proq so‘zlashish yoki shu muhitni yaratish orqali rivojlantirish mumkin. Shuningdek, tili o‘rganilayotgan xalqqa xos bo‘lgan muloqot jarayoni, muloqot madaniyati, urf-odat va tarixi, ijtimoiy-siyosiy ahvoldan boxabarlik ham lingvistik bilimlarning takomillashuviga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 1875-sonli qaror. “Xalq so‘zi” gazetasi.
2. [http://www.thehistoryofenglish.com/issues\\_new.html](http://www.thehistoryofenglish.com/issues_new.html)
3. [http://philosophystorm.org/lev\\_evdokimovich\\_balashov/3208](http://philosophystorm.org/lev_evdokimovich_balashov/3208)